



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA O'QUVCHILARDA MILLIY
G'URUR TUYG'USI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

Mo'minov Oybek Rustamjon o'g'li

Qo'qon DU magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlarning ahamiyati, ularni o'quv-tarbiyaviy jarayonga integratsiyalash metodikasi, pedagogik yondashuvlar hamda samarali metodlar tahlil etiladi. Milliy tarbiya, xalq og'zaki ijodi, urf-odat va an'analar asosida yosh avlodda Vatanga sadoqat, milliy iftixor va g'ururni shakllantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *etnopedagogika, milliy g'urur, qadriyat, o'quvchi, tarbiya, xalq og'zaki ijodi, milliy ong, an'ana.*

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ
ГОРДОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ЦЕННОСТЕЙ**

Моминов Ойбек Рустамджон оглы

Магистратура Кокандского государственного университета

Аннотация. *В данной статье анализируется значение этнопедagogических ценностей в формировании чувства национальной гордости у студентов, методика их интеграции в образовательный процесс, педагогические подходы и эффективные методы. На основе национального воспитания, фольклора, обычаев и традиций показаны способы формирования преданности Родине, национальной гордости и самолюбия у подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *этнопедагогика, национальная гордость, ценность, студент, воспитание, фольклор, национальное сознание, традиция.*

**METHODOLOGY OF FORMING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN
STUDENTS ON THE BASIS OF ETHNOPEDAGOGICAL VALUES**

Mominov Oybek Rustamjon oglu

Master's student of Kokand State University

Annotation. *This article analyzes the importance of ethnopedagogical values in forming a sense of national pride in students, the methodology for integrating them into*



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



the educational process, pedagogical approaches and effective methods. On the basis of national education, folklore, customs and traditions, ways of forming loyalty to the Motherland, national pride and pride in the younger generation are shown.

Keywords: *ethnopedagogy, national pride, value, student, education, folklore, national consciousness, tradition.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy va ma'naviy qadriyatlarga sodiq, o'z xalqining tarixiga hurmat bilan qaraydigan, milliy iftixor va g'urur tuyg'usiga ega inson qilib tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Milliy g'urur – bu xalqning o'z tarixiga, tiliga, madaniyatiga, buyuk ajdodlariga hurmat bilan qarashidir".

Mamlakatimiz talabalarda etnopedagogik qadriyatlarni saqlav va takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishi natijasida milliy bag'rikenglik mustahkamlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida "Oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa Etnopedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usi shakllantirish takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu bois o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda xalq pedagogik merosidan, ya'ni etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish muhim metodik yo'nalish hisoblanadi. Etnopedagogika – bu xalqning asrlar davomida shakllangan tarbiyaviy tajribasini, urf-odat va qadriyatlarini o'rganadigan fan bo'lib, u zamonaviy ta'lim-tarbiyada milliy o'zlikni anglashni mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Etnomadaniyat atamasi ikki iboradan tashkil bo'lib, "etno" va "madaniyat" so'zlari qo'shilmasidir.

"Etno – (yunoncha-qabila, elat, xalq) – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi; elat, xalq va ularga oidlik ma'nolarini bildiradi". Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenez)ni ifodalaydi. Bunday tarzda biz o'zbek xalqining kelib chiqishi, uning etnogenezi (urug'chilik, nasl)ni tushunishimiz kerak. Shu bilan bir vaqtda etnos so'zi ko'pchilik ilmiy-nazariy manbalarda keng qo'llaniladi.

Madaniyat tushunchasi keng ma'noni anglatib, jamiyat va inson tarixiy taraqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat, shuningdek, ijtimoiy identitetni shakllantiradi va insonlarning hayotini, qarorlarini hamda o'zaro munosabatlarini belgilaydi. U doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib boradi, bu esa turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir va almashuvni ta'minlaydi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



An'anaviy madaniyat aynan etnik madaniyatning tarixiy jarayonida shakllangan, sinalgan va an'anaga aylangan, avloddan avlodga meros bo'lib o'tayotgan muhim qismi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, an'anaviy xalq madaniyatini yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois, madaniyat tasnifidan kelib chiqib, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyati tizimining tarkibiy qismidir, deb xulosa qilsak bo'ladi.

Qator olim hamda tadqiqotchilar madaniyat nazariyasi va ta'limi bo'yicha izlanishlar olib borgan. Ular har bir millatga xos yondashuvlarni nafaqat maktablarda balki, oliy ta'lim muassasalarida ham tatbiq etish zarurligini tavsiya etganlar. Bu borada mamlakatimizda va xorijdagi tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda qator olimlarning tadqiqot muammosiga doir izlanishlarini tahlil qildik. Xususan, G.Gay, S.Grant, S.Nieto, C.Sleeter, kabi olimlarning tadqiqotlarida o'quv rejasi va ta'lim mazmuniga milliy madaniyat, talabalar orasida sog'lom muhit yaratishni singdirish, talaba-yoshlarning psixik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish lozimligi tavsiya etilgan.

Layl Spenser, Sayn Spenserlar jamiyat taraqqiyotida har bir kasb egasidagi kompetensiyaning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaganlar va ularni besh guruhga ajratganlar (psixomotor, daliliy bilimlar, shaxslararo, intellektual-kognitiv, motivatsion). Bunda talabalarda etnokompetensiyani shakllantirish orqali kasbiy motivatsiyani uyg'otish va qiziqishini oshirishga erishiladi, natijada talabalarda kelgusi pedagogik faoliyatga intilish va tayyorgarlik ko'rish zarurati paydo bo'ladi.

Nemis olimi D.Glovka "o'zga millat madaniyatini o'rganish orqali millatlar o'rtasida o'zaro hurmatga erishish mumkinligi haqida ilmiy g'oyani ilgari surgan hamda multimadaniyat tushunchasini, maqsad va vazifasini asoslab bergan". Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy mavqeyi bevosita millatlarga o'zaro birdamlik bilan belgilanadi. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning tub mohiyati ham shundan iborat.

Muhokama va natijalar. Etnomadaniyat ta'limiga asos solgan olimlardan yana biri Dj.Banks bo'lib, uning tadqiqotlari multimadaniyat mazmuniga ijtimoiy tizim sifatida qaratilgan, olimning ilmiy g'oyalarida "ta'limda tenglik" aks etgan. Uning fikricha "oliy ta'lim muassasalarining barchasida ijtimoiy-siyosiy boshqaruvni hisobga olgan holda, pedagoglar o'rtasida o'zaro munosabatni tashkil etishga yo'naltirilgan o'quv materiallari, baholash metodlari va o'qitish uslublarini tashkil etish lozim".

Umumjahon pedagogikasi tajribasidan kelib chiqqan holda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv materiallari tub mazmunida har bir millat uchun qadrlil bo'lgan qadriyat, milliy madaniyat, milliy iftixor va g'urur tuyg'usini shakllantiruvchi elementlar yig'indisi ifodalanishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin. Shu boisdan, talabalar ongida millat



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



va vatanga sadoqat hissini tarbiyalash barcha ta'lim muassasasining muhim vazifasi sanaladi.

Joel Spring "ta'lim muassasalarining ijtimoiy tuzilishiga ahamiyat qaratgan bo'lib, ta'lim-tarbiyada barcha o'quvchi-talabalarni ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar bir xil yondashish kerakligini asoslagan".

Piter MakLaren "davlat va jamiyatdagi global muammolar yechimiga qaratilgan ta'limni tashkil etish borasida o'z qarashlarini ishlab chiqqan". So'nggi davrda dunyoda mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy nizolarni avj olayotganligini kuzatishimiz mumkin. Rossiya va Ukraina, Isroil va Falastindagi siyosiy vaziyatlar negizida ham millatlar o'rtasidagi nomutanosiblikning yuzaga kelganligi yotadi. Shu boisdan talabalarda etnomadaniyat va kompetensiyani shakllantirish dolzarb sanaladi.

J.Henry "oliy ta'lim jarayonida talaba shaxsiga alohida munosabatda bo'lish ya'ni uni ijtimoiy guruh vakili sifatida qabul qilish muhimligini asoslagan".

Yuqorida muhokama qilingan fikr va mulohazalar ko'rinib turibdiki ijtimoiy noxaqlik va adolatsizlik demokratik jamiyat qurishga katta xavf solishi hamda milliy munosabatlarda tengsizlik avj olishi mumkinligini tasdiqlab turibdi.

Germaniyada 1980-yillarning oxirlarida turli millat bolalariga tarbiya berish pedagogikasiga asos solindi. Aynan shu davrda xorijliklar uchun pedagogika fani paydo bo'ldi. Ularga milliy mentalitetga mos ravishda ta'lim-tarbiya berildi. "Etnomadaniyat pedagogikasi asoschilaridan biri X.Yesinger nemis bolalari va boshqa emigrant-bolalar maktabini yaratdi. Mazkur maktabda multimadaniyat tamoyillari ustuvorlik qilgan bo'lib, nemis pedagogikasida katta o'zgarishlar yuz bergan, maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilar o'zlarini muhojir emas, balki shu mamlakatning farzandidek his qilishlariga e'tibor qaratilgan".

XX-asrning so'nggi o'n yillarida pedagog-psixolog olimlar ijtimoiy adolatga asoslangan ta'lim tizimi va unga yangicha yondashish, o'qitish modelini ishlab chiqishga uringan.

Xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijasida multi va etnomadaniyat asrlar davomida rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Shu davrda etnik, gender va yosh xususiyati diskriminatsiyasi yuz bergan. Ya'ni inson huquqi va erkinligini cheklanishi, ular bilan ijtimoiy holati (yoshi, millati, irqi, oilaviy sharoiti, imkoniyati, ma'lumoti, psixikasi)ga ko'ra turlicha muloqot o'rnatilishi kabilar ro'y bergan.

Tarixiy taraqqiyot natijasida etnomadaniyat tushunchasi kengayib bordi. Uning tuzilishi va mazmuni, metodologiyasiga asoslanib, etnopedagogika va pedagogik bag'rikenglik rivojlandi. Sekin-asta pedagogik va kasbiy kompetensiya yuzaga kela boshladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida milliy madaniyatni rivojlanishida irqiy, etnik va diniy yondashishni turlichaligiga, har bir ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakani egallashini ta'minlashga alohida e'tibor berilgan. Talabalarda ijodiy va tanqidiy tafakkur



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantirilgan, shuningdek, etnoma-daniy kompetensiyani shakllantirish hamda ijtimoiy va global muammolar haqida ma‘lumot berishga alohida e‘tibor berilgan. Ta‘lim jarayoni o‘quvchi va talabalarni ijtimoiy jamiyatda faol shaxs sifatida ishtirok etishiga qaratilgan.

Rossiyalik olim N.V.Rudnevaning fikricha, “kompetensiya shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va ijtimoiy hayotdagi faolligi, boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishi” orqali rivojlanadi” deya hitob qiladi.

Talabalarda o‘zini-o‘zi, ya‘ni autokompetensiyani rivojlantirish lozim, shundagina ularda millat kelajagini o‘ylash va fidoyi bo‘lish kabi sifatlar shakllanadi. Bo‘lajak mutaxassis sifatida pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalarida milliy va ma‘naviy qadriyatlarga amal qilishni hamda o‘zligini anglashni tarkib toptirish darkor.

L.V.Zanina va N.P.Menshikova “Kasbiy-pedagogik kompetensiya – bu ma‘lum bir qadriyatlar, ideallar va pedagogik ongning sohibi sifatida pedagogik faoliyat, pedagogik muomala va o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni aniqlatadigan bilim, ko‘nikmalar tizimiga egalikdir – deb ta‘rif beradilar”.

Talabalaridagi etnomadaniy kompetensiya va kasbiy layoqatni shakllantirishda innovatsion jarayon tarkibida mediamuhit sharoitlarini yaratish maqsadga muvofiqdir, chunki talabalar ta‘lim-tarbiyaga oid yangilik yoki muammolardan axborot maydoni orqali xabardor bo‘ladilar.

Pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan ta‘lim-tarbiya jarayoni tom ma‘noda talabalarda nafaqat xulq-atvor me‘yorlarini, balki insoniylikning barcha olijanob fazilatlarini shakllantirish zaruratini belgilaydi. Biroq professor-o‘qituvchilarning o‘zida ham etnomadaniy kompetentlik yetarli darajada shakllangan bo‘lishi shart. Ma‘lumki, shaxsga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun madaniyat unga samarali ta‘sir etuvchi muhim omildir.

Xulosa. Sanab o‘tilgan va tahlil qilingan fikr-mulohazalar asosida etnopedagogik qadriyatlar asosida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usi shakllantirish bevosita o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari zahirida paydo bo‘ladi, degan xulosa chiqarish mumkin. O‘quvchilarda etnik qiziqish va maylni inobatga olish zarur, uning zahirida kasbiy kompetensiya ham rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash demakdir.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. To‘xtaxo‘jayev Sh. *Etnopedagogika asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Hasanov B. *Milliy qadriyatlar va tarbiya.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil.
5. Karimova D. *Etnopedagogika va milliy tarbiya metodikasi*. – Samarqand, 2022.